

“QANOT JUFT BO’LADI” ASARIDA JAMIYAT VA OILA OLDDIDAGI MAJBURIYATLAR

G’ulomjonova Madina Hamid qizi

Guliston davlat universiteti Filologiya fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Odil Yoqubovning “Qanot juft bo’ladi” qissasi asosida oila va jamiyat o’rtasidagi murakkab munosabatlar, qiyin vaziyatlar, shuningdek, insonning ushbu ikki muhim ijtimoiy muhit oldidagi majburiyatlari yoritiladi. Asar bosh qahramonlari – Sayyoraxon va Akramjon timsolida oilaviy hayotdagi murosasizliklar, o’zaro mas’uliyat va ijtimoiy bosimning inson taqdiriga ta’siri tahlil qilinadi. Qissadagi voqealar orqali muallif oila mustahkamligi uchun faqat jamiyat talablari emas, balki shaxsiy kechinma, sabr, tushunish va mehr kabi jihatlarning muhimligini ko’rsatadi. Maqolada bu jihatlarning adabiy tahlil asosida ochib beriladi va zamonaviy hayot bilan bog’lab o’rganiladi.

Kalit so’zlar: Odil Yoqubov, “Qanot juft bo’ladi”, oila, jamiyat, majburiyat, adabiy tahlil, ayol obrazi, ijtimoiy bosim, oilaviy nizolar.

Insoniyat tarixining har qanday bosqichida oila jamiyatning eng muhim, eng barqaror va eng qadimiy ijtimoiy institutlaridan biri bo’lib kelgan. Oila – bu nafaqat erkak va ayol o’rtasidagi rishta, balki jamiyatning axloqiy, ruhiy, madaniy tayanchidir. Aynan oilada inson hayotining ilk qadamlari qo’yiladi, shaxs sifatida shakllanishi boshlanadi. Shu boisdan ham har bir inson nafaqat oilasi oldida, balki jamiyat oldida ham muayyan mas’uliyat va majburiyatlarga egadir.

O’zbek adabiyotida oila va jamiyat o’rtasidagi murakkab munosabatlarni, erkak va ayolning o’zaro burch va vazifalarini, oila saqlanishidagi ma’naviy omillarni chuqur badiiy tahlil etgan asarlar ko’p uchraydi. Shunday asarlardan biri – O’zbekiston xalq yozuvchisi Odil Yoqubovning “Qanot juft bo’ladi” nomli qissasidir. Odil Yoqubov ijodida takrorlanmas asarlari juda ko’p bo’lsa-da, ularni orasida o’z o’rniga ega bo’lgan “Qanot juft bo’ladi” qissasi insonni o’yga tildiruvchi, yurakdan kechgan sof his-tuyg’ularni aks ettiradigan bu asarida jamiyat va oila oldidagi majburiyatlar qalamga olingan.

“Qanot juft bo’ladi” asari 1968-yilda e’lon qilingan asar bo’lib, asarda yozuvchi bir vaqtning o’zida ijtimoiy, ma’naviy va axloqiy muammolarni, ayniqsa, milliy mentalitet bilan bog’liq masalalarni yoritadi. Qishloqdagi sof chapani insonlar va shahardagi zamon bilan hamnafas bo’lib yashashga intilayotgan insonlar taqdiri yoritiladi. O’tgan asrning 60-yillarida xalq ma’naviy hayotining ichida nimalar sodir bo’layotganligi, jamiyat orasida qaysi ishlar ma’qul qaysilari ularning mentalitetiga to’g’ri kelmasligi, xalqning ma’naviy rivojlanishiga nimalar xalaqit qilayotganligi haqidagi savollarga javob izlaydi. Asarning bosh personajlari bo’lgan Akramjon va Sayyora, Akramjonning ikkilanishlari, o’zi bilan o’zi tortishib chekayotgan iztiroblari,

Sayyoraning yosh qizlarcha fikrlab yo'l qo'ygan xatolari, boshqa personajlarning taqdir yo'llaridagi qilgan xato va kamchiliklari, kuchli va zaif tomonlari o'sha davrdagi ijtimoiy hayot bilan bog'liq holda tahlil etilgan.

Oila – ikki qalb, ikki mas'uliyat birligi demakdir. “Qanot juft bo'ladi” qissasining nomi ham o'z-o'zidan chuqur ramziy ma'noga ega. Qanot – parvoz, erkinlik, orzu timsoli bo'lsa, “juft” – uyg'unlik, birlik, muvozanatni bildiradi. Odil Yoqubov aynan shu timsol orqali oila faqat ikki insonning biroviga bo'ysunishi orqali emas, balki bir-birini tushunishi, hurmat qilishi va tenglik asosida qurilishi lozimligini ilgari suradi. Bu fikrlarni esa Sayyoraning dadasi bo'lmish Obid Yunusovichni tilidan qiziga tushuntiriladi. Qizi esa 25 yoshni qarshilaganiga qaramasdan o'zini 19 yoshli qizlarcha hayotning past - balandliklarini tushunmasdan yengil-yelpi qaraydi.

Ushbu asarda ikki yosh – Sayyoraxon va Akramjon o'rtasidagi oilaviy ziddiyatlar, o'zaro tushunmovchiliklar fonida erkak va ayolning, shuningdek, jamiyat a'zolarining oila barqarorligidagi o'rni keng badiiy ifodasini topgan. Qissada tasvirlangan voqealar orqali muallif nafaqat oddiy oilaviy mojaro haqida so'z yuritadi, balki har bir insonning jamiyat oldidagi axloqiy va ijtimoiy majburiyatini, ijtimoiy bosimlar va qarorlar inson taqdiriga qanday ta'sir qilishini ko'rsatishga urinadi. Bu jihatdan “Qanot juft bo'ladi” qissasi nafaqat bir oilaning fojiasi, balki butun jamiyat hayotining badiiy timsoli sifatida o'rganilishi mumkin bo'lgan asardir.

Qissada erkakning majburiyati va ijtimoiy roli haqida Akramjon obrazi yetakchilik qiladi. U qishloqda tug'ilib o'sgan, hozirda shaharda ilm bilan shug'ullanayotgan yosh olim va yangi oilaning posboni. Asarda Akramjon qishloq stereotiplaridan chiqib, shahar hayotiga moslashishga uning ma'naviy rivojlanayotgan tomonlariga ko'nikishga harakat qilayotgan obraz. Shunga qaramay or-nomusini saqlashga tish-tirnog'i bilan harakat qiladi. Qissada Akramjon obrazi shaharning tutumlarini ham qishloq odatlarini ham o'z vaqtida bir maromda olib bora olmayotgandek go'yo. Shu sababli ham xotini bilan tortishib unga shapaloq tortish darajasigacha yetadi. Lekin o'z aybini anglab, pushaymon bo'ladi, bu esa erkakning ham o'z majburiyatini tushunishi va oilani asrash mas'uliyatini his qilishi lozimligini ko'rsatadi. Odil Yoqubov bu yerda erkakning ham oila oldida, ham jamiyat oldida mas'ul shaxs sifatida talqin qiladi. Erkakning bitta noto'g'ri harakati nafaqat ayolning, balki butun oilaning, bolalarning, hatto jamiyatning ruhiy muvozanatiga putur yetkazishi mumkinligini isbotlaydi. Achchiq ustida xotiniga qilgan qo'pol ishidan bora-bora o'zi ham pushaymon cheka boshlagani Akramjonning oilani saqlab qolishga qo'ygan qadam ekanligini his qiladi va yengil tortadi kitobxon ham.

Jamiyatdagi insonlarning ma'naviy hayotlarida qaysi ishlar ular uchun mos va qaysi ishlar ular uchun noma'qul ekanligini Sodiqvoy va Hamida, Nortoji va uning xotini, Turobjon va Malohat, Amaki obrazlari orqali Odil Yoqubov tasvirlab bergan. Ularning hayotlariga bir nazar tashlaydigan bo'lsak Sodiqvoy o'z xotinini sevadi. Lekin rashk tufayli uni pichoqlash darajasigacha boradi.

Hamida obrazi bolalarini o'ylab ularni yetim qilmaslik uchun qishloqdagilarning "og'zi"ga tushmaslik uchun hamma jabr va zulmlarga chidayotgan obraz.

Nortoji-qishloq hayoti, avlodlarining sha'ni, or-nomus masalalarini o'ylab yoshiga nisbatan ancha keksalardek fikrlaydigan, joyi kelganda akasi, kelinoyisi hatto onasiga ham aql o'rgatadigan obraz.

Turobjon-qishloq raisi. Raislik nomiga dog' tushirmaslik uchun jon kuydirayotgan, u uchun hamma narsadan voz kechadigan zarur paytda qishloqdoshlarini hayotidan Baqabuloqning obro'sini o'ylaydigan (Ubayjon tili bilan aytganda zamonaviy) obraz.

Amaki obrazi yordamchi personaj bo'lsa-da anchayin aql bilan fikrlaydigan, ayollarni hurmat qiladigan ularga izzat-ikrom ko'rsatadigan personaj. Buni isbotini rafiqasi bilan bo'lgan suhbatlarida, qizlariga qilgan muomalasida ko'rish mumkin. Ayollar qaysi jamiyatda yashamasin ularning vazifasi faqatgina bolalar tarbiyasi bilan mashg'ul bo'lish, ularni sog'lom holda voyaga yetkazish ekanligini shu Matqobil obraz orqali yozuvchi yetkazishga harakat qilgan.

Nilufar va Shavkatjon, Nilufarning dadasi bo'lgan professor, Zafar Boboyev, Sulton Qosimov, Shohida, ko'sa obrazlari yordamchi personaj bo'lib o'sha davr ijtimoiy muhitini tasvirlashda muhim rol o'ynaganligi bilan e'tiborli.

Xulosa qilib aytganda, Odil Yoqubov qissa davomida hech bir qahramonni mutlaq aybdor yoki begunoh qilib ko'rsatmasligi xuddi mustaqillik davrida bitilayotgan asarlarga o'xshatgim keladi. Shaxs erki va uning inson bo'lib shakllanish jarayonini tasviri desa ham bo'ladi. U har bir insonning xatti-harakatiga sabab borligini, hayotda hamma narsa oddiy oq-qora ranglarda bo'lishini emas, balki murakkab hayotiy tanlovlar mavjudligini ko'rsatadi. Har bir insonning yashayotgan hayoti o'z tanlovlaridan kelib chiqadi. Inson qanday hayot kechirishini, qanday jamiyatda yashashini o'z tanlovlari orqali belgilaydi – har bir qarorning ortida mas'uliyat turadi. Kishi chiqargan va qabul qilgan qarorlarini badalini o'z umri bilan to'laydi. Akram ham universitet rektori bo'lishga shunchaki erishgani yo'q. Balki mehnatlari tufayli, sof inson bo'lganligi tufayli erishadi. Yozuvchining katta mahorati shundaki, asar bosh qahramonlari bo'lmish Sayyora Akramni yaxshi turmush o'rtoqligini bilish uchun u har xil odamlarning hayotini ko'rishni, Akram bilan solishtirishni, ulardan xulosa chiqarishi uchun qo'yib beradi yoki bo'lmasa oilali ayolga xos tarzda chuqur mulohaza etishga holi qo'yib bergani, o'z aybini tushunishi uchun sinovlar vaqti kerakligini hayotiy misollar bilan yoritgani asarning darajasi baland ekanligidan dalolat beradi. "Qanot juft bo'ladi" qissasi yozilganiga 57 yil vaqt o'tgan bo'lsa-da, davr bilan hamnafasligi, uning umrboqiyligida, asarning mazmunida aks etishi bilan baholanishini ko'rib turibmiz.

Odil Yoqubov qissada oila tushunchasini "qanot" (erkinlik) va "juft" (muvozanat) simvollari orqali ochib beradi. Sayyoraxon va Akramjon timsolida oilaviy rishtalar faqat tashqi qonun-qoidalariga emas, balki o'zaro ishonch va samimiyatga tayansa, haqiqatdan ham "qanot juft bo'lib" parvoz qila olishini anglatga bo'ladi.

Aynan shu jihatlar asarni o'zbek adabiyotidagi o'ziga xos psixologik va ijtimoiy hamda dolzarbligi yo'qolmaydigan – muqaddas oilani sharaflaydigan asarlardan biriga aylantirdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yoqubov O. "Qanot juft bo'ladi" –T.: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1986.
2. Xudoyberganov N. Parvoz davom etadi. –T.: G'.G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1980.
3. Mirvaliyev S. O'zbek adiblari. –T.: Yozuvchi, 2000.
4. Karimov N. va boshqalar. XX asr o'zbek adabiyoti tarixi. –T.: O'qituvchi 1999.